



## SURXONDARYO VILOYATI URUG'-MEVA BOG'LARIDA UCHROVCHI DOMINANT TURLAR

**Tojiyeva Feruza Anvarovna**

o'qituvchi, Termiz davlat universiteti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Surxondaryo viloyatining mevali bog'larida uchrovchi zararkunanda hasharotlarning faunasi, taksonomik tarkibiga ko'ra, aniqlangan oilalari (Tortricidae, Aphididae, Tingidae, Diaspididae, Tetranychidae, Lhitholletidae, Pseudococcidae, Miridae, Pentatomidae, Geocoridae, Grounders, Ligaeidae) turlar tarkibi haqida ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** *Malus domestica* B., *Cydia pomonella*, *Grapholitha molesta*, *Parlatoria oleae*, bargi, novdasi.

Respublikamiz mevali bog'larida 260 dan ziyod zararkunanda va 50 dan ziyod kasalliklar, dala ekinlarida 300 dan ortiq zararkunandalar va 100 dan ortiq kasalliklar uchrashi qayd qilingan [2,4]. Olma, *Malus domestica* B. iqtisodiy jihatdan muhim ekin bo'lib, butun dunyoda yetishtiriladi. Dunyo bo'yicha AQSH (4,8 mln.t.), Xitoy (22,01mln.t.), keyingi o'rinlarda Rossiya, Eron, Turkiya, Fransiya, Italiya mamlakatlari olma yetishtirish bo'yicha yetakchilik qiladi. O'zbekistonda olma uzumdan keyingi eng ko'p yetishtiriladigan meva hisoblanadi. Jahon bo'yicha olmaning yalpi hosili 60,2 mln. tonnani tashkil etsa, bu son O'zbekistonda 0,4 mln. tonnani tashkil etadi [1].

Mevali bog'larda o'simliklarni himoya qilish chora-tadbirlaridan samarali foydalanish uchun zararkunandalarning tur tarkibi va dominant turlarini, bioekologik xususiyatlarini, hamda zarar keltirish darajasini bilish muhim ahamiyatga ega. Dala tadqiqot ishlari 2020-2022-yillarda olib borildi. Zararkunandalarning qishki tinim davrini o'rganish maqsadida kuzatish ishlari nafaqat vegetatsiya davrida, balki tinim davrida ham uzluksiz davom ettirildi. Sinchiklab tekshirish uchun har xil yoshdagi daraxtlar tanlab olingan dalalarda



kuzatilib, ularni ekspozitsiya va boshqa taksatsion xarakteristikasi o'rganildi. Tanlangan dalalar vaqtinchalik va doimiy (uzoq muddatli) kuzatiladigan dalalarga bo'lindi.

Mevali bog'larda zararkunandalarning miqdorini aniqlash uchun modeli (namunaga olinadigan) daraxtlar ajratiladi, daraxtlarning oralig'i bir-biridan bir xil masofada joylashgan diagonal bo'ylab belgilanadi. Ularning soni bog'ning maydoniga bog'liq holda olinadi, har 10 gektar atrofidagi maydondan - 20 daraxt, 11 dan 25 gektargacha - 30 daraxt, 26 dan 50 gektargacha - 40 daraxt, 51 dan 100 gektargacha - 50 daraxt, 101 dan 200 gektargacha -75 daraxt, 200 gektardan ortiq bo'lsa, 100 daraxt olinadi. Mevali bog'larda uchayotgan hasharotlarni hisobga olish uchun, turli xildagi tutqich va xo'raklar yoki aldoqchi yemlardan foydalanildi.

Namunaga olingan daraxt shox-shabbasi tekshirilib novdalar va mevalar ko'zdan kechiriladi. Mevali daraxtlar tanasidagi hasharotlarni miqdorini aniqlashda, daraxt tanasini eski qobiqlari olinib, uning ichki yuzasi va tanasi tekshirildi, topilgan hasharotlar oldindan tayyorlangan, 70% li spirt solingan flakonlarga terib olindi.

Tadqiqotlar uchun zarur bo'lgan materiallar Surxondaryo viloyati mevali bog'larining zararkunandalar keng tarqalgan hududlaridan yig'ib kelingan zararkunandalar orasidan kolleksiya uchun materiallar olindi va kolleksiyalar tayyorlandi.

Kuzatuvlarimiz natijasida 100 dan ortiq namuna yeg'ildi. Olib borilgan tadqiqotlar va faunistik tahlil natijalariga ko'ra, Surxondaryo viloyatining mevali bog'larida uchrovchi zararkunanda hasharotlarning faunasi taksonomik tarkibiga ko'ra, aniqlangan oilalar soni 12 ta (Tortricidae, Aphididae, Tingidae, Diaspididae, Tetranychidae, Lhitholletidae, Pseudococcidae, Miridae, Pentatomidae, Geocoridae, Grounders, Ligaeidae), avlodlar soni 21 ta, turlar soni 23 tani tashkil qildi.

Urug'-mevali bog'larga zarar keltiruvchi zararkunanda hasharotlardan asosiy dominant turlar va ularning taksonomiyasini aniqlash maqsadida zararkunandalardan 10 turi aniqlandi (1 - jadval).

Surxondaryo viloyati urug'- mevali bog'larga zarar keltiruvchi eng ko'p uchraydigan va asosiy turlardan 10 ta turi aniqlandi. Aniqlangan turlarning 4 tasi dominant turlar- olma mevaxo'ri *Cydia* (*Laspeyresia*) *pomonella* L., qizilqon shirasi *Eriosoma*



lanigerum, binafsharang qalqondor *Parlatoria oleae*, nok qandalasi *Stephanitis pyri* deb qayd qilindi.

**Surxondaryo viloyati urug‘- meva bog‘larida uchrovchi asosiy turlarning  
taksonomiyasi** **1- jadval**

No	Tip	Sinf	Turkum	Oila	Tur
1	Arthropoda	Insekta	Lepidoptera	Tortricidae	Olma mevaxo‘ri <i>Cydia pomonella</i> (Linnaeus, 1758)
					Sharq mevaxo‘ri <i>Grapholita molesta</i> (Busck, 1916)
			Hemiptera	Aphididae	Olma shirasi <i>Aphis pomi</i> (De Geer, 1773)
					Qizilqon shirasi <i>Eriosoma lanigerum</i> (Haus., 1802)
				Diaspididae	Kaliforniya qalqondori <i>Diaspidiotus perniciosus</i> (Coms., 1881)
					Binafsharang qalqondori <i>Parlatoria oleae</i> (Colvée, 1880)
		Tingidae	Olma qandalasi <i>Stephanitis oschanini</i> (Vasiliev, 1935)		
			Nok qandalasi <i>Stephanitis pyri</i> (Fabricius, 1775)		
		Arachnida	Prostigmata	Tetranychidae	Qizil do‘lana kanasi <i>Amphytetranychus viennensis</i> Zaxer
					Oddiy o‘rgimchakkana <i>Tetranychus urticae</i> (Koch, 1836)



Surxondaryo viloyati urug'-mevali bog'larida kemiruvchi zararkunandalardan bargo'rovchilar (Tortricidae) oilasi vakillaridan 2 turi- olma mevaxo'ri *Cydia* (*Laspeyresia*) *pomonella* L., sharq mevaxo'ri - *Grapholitha* (*Laspeyresia*) *molesta* Busck., so'ruvchi zararkunandalardan 8 turi- olma shirasi *Aphis* *pomi* (De Geer, 1773), qizilqon shirasi *Eriosoma* *lanigerum* (Haus., 1802), kaliforniya qalqondori *Diaspidiotus* *perniciosus* (Cms., 1881), binafsharang qalqondor *Parlatoria* *oleae* (Colvée, 1880), olma qandalasi *Stephanitis* *oschanini* (Vasiliev, 1935), nok qandalasi *Stephanitis* *pyri* (Fabricius, 1775), qizil do'lana kanasi *Amphytetranychus* *viennensis* Zacher, oddiy o'rgimchakkana *Tetranychus* *urticae* (Koch, 1836) sezilarli zarar keltirishi aniqlandi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Botirov A. E., Arakawa O. Apples and its water requirements: some water retention substances. “Ўзбекистоннинг умидли ёшлари” мавзусидаги 6-сон Республика илмий онлайн конференциясининг материаллари тўплами. – Тошкент: «Tadqiqot», 2021. – 44-49 б.
2. Эргашев И.К., Муродов Б.Э. ва бошқ. «Боғ, токзор ва дала экинларининг зараркунанда, касалликлари, бегона ўтлар ҳамда уларга қарши кураш усуллари» . – Тошкент: “Наврўз” нашриёти. 2018. 136 бет.
3. Tojiyeva F., G'aniyeva G. Binafsharang qalqondori - *Parlatoria oleae* (Colvée, 1880) ning biologik xususiyatlari va zararlilik darajasi //Research Focus International Scientific Journal, 2023, №2/6, 12-14.
4. Anvarovna T. F. et al. So'ruvchi Zararkunandalardan-Aphididae oilasi vakillarining turlari, bioekologik xususiyatlari //Scientific Approach To The Modern Education System. – 2022. – Т. 1. – №. 10. – С. 51-54.
5. Anvarovna T. F. The main pests of grain orchards of surkhandarya region. – 2021.
6. Anvarovna T. F. The Main Pests Of Seed Orchards Of Surkhandarya Region //Texas Journal of Multidisciplinary Studies. – 2024. – Т. 30. – С. 8-9.
7. Қулматов К. А., Қулмаматова С. Я. Қ. ПИРОФОСФАТЛАР ЎСИМЛИК УЧУН ЎҒИТ СИФАТИДА //Интернаука. – 2019. – №. 45-2. – С. 89-90.



8. Саидов, М., Қорабоева, Д., Қулматов, К., & Тоғаев, А. (2019). ЦИТРУС ЎСИМЛИКЛАРИНИНГ КЕЛИБ ЧИҚИШИ, ТАРҚАЛИШИ ВА ДОРИВОРЛИК хусусиятлари. *Интернаука*, (45-2), 97-100.
9. Саидов, М., Бобоева, Н., Қулматов, К., & Тоғаев, А. (2020). ЎЗБЕКИСТОНДА ЦИТРУС ЎСИМЛИКЛАРИНИ ЕТИШТИРИШ АГРОТЕХНОЛОГИЯСИ. *Интернаука*, (5-2), 48-49.
10. Kulmatov K., Turaev K., Djalilov A. Hydrogels Based on Rice Starch, Acrylic-and N, N'-Methylenbi Sacrylamide, Metacrylamides and Their Use in Agriculture //Journal of Advanced Zoology. – 2023. – Т. 44.
11. Ergashovich K. A., Musurmonovich F. S. Some Characteristics Of Transpiration Of Promising Soybean's Varieties //The American Journal of Agriculture and Biomedical Engineering. – 2021. – Т. 3. – №. 05. – С. 28-35.
12. Вахриддиновна R. U., Musurmonovich F. S. Soybean-as a source of valuable food //Texas Journal of Multidisciplinary Studies. – 2022. – Т. 6. – С. 165-166.
13. Musurmonovich F. S., Komiljonovna X. S., Qudrat o'g'li S. A. Some Photosynthetic Indicators of Soybean Varieties //Texas Journal of Multidisciplinary Studies. – 2022. – Т. 5. – С. 255-257.
14. Фозилов Ш. М. Периодичность роста и формирования урожая у внутривидовых форм пшеницы //Интернаука. – 2019. – №. 45-1. – С. 18-20.
15. Вахриддиновна R. U., Musurmonovich F. S. Distance Learning System in Educational System Instead, and Significance //Texas Journal of Multidisciplinary Studies. – 2023. – Т. 21. – С. 11-13.
16. Normuminovna Q. D., Musurmonovich F. S. Bioecological Properties of Salvia Officinalis L //Texas Journal of Multidisciplinary Studies. – 2022. – Т. 6. – С. 249-252.
17. Вахриддиновна R. U. Methodology For Solving Problems of Food Chains and Ecological Pyramids and Its Significance //Texas Journal of Multidisciplinary Studies. – 2024. – Т. 28. – С. 19-22.



18. Fozilov S., Ziyodova M. MAKTABLARDA STEAM TEXNOLOGIYASINI JORIY ETISHNING XUSUSIYATLARI VA AFZALLIKLARI //Biologiyaning zamonaviy tendensiyalari: muammolar va yechimlar. – 2023. – T. 1. – №. 5. – C. 819-821.
19. Fozilov S. THE EFFECT OF DROUGHT ON THE WATER REGIME IN THE LEAVES OF SOYBEAN VARIETIES //Science and innovation in the education system. – 2023. – T. 2. – №. 9. – C. 25-28.
20. Fozilov S. EFFECT OF STRESS FACTORS ON SOME PHYSIOLOGICAL PARAMETERS OF SOYBEAN PLANT //Science and innovation in the education system. – 2023. – T. 2. – №. 7. – C. 722-74.
21. Ravshanova U. B. et al. SOYA O'ZBEKISTONDA OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING MUHIM MANBAI SIFATIDA //Экономика и социум. – 2022. – №. 11-1 (102). – C. 81-84.
22. Musurmonovich F. S. et al. PECULIARITIES OF THE INTENSITY OF PHOTOSYNTHESIS AND TRANSPIRATION OF SOY LEAVES //Ann. For. Res. – 2022. – T. 65. – №. 1. – C. 5371-5378.
23. Musurmonovich F. S., Alisherqizi M. A. Photosynthetic Indicators of Different Shade Varieties Growing in Surkhandarya Region. – 2023.
24. Musurmonovich F. S., Baxriddinovna R. U. SOYA BARGLARIDA FOTOSINTEZ VA TRANSPIRATSIYA JADALLIGINING O 'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI //NAZARIY VA AMALIY FANLARDAGI USTUVOR ISLOHOTLAR VA ZAMONAVIY TA'LIMNING INNOVATSION YO'NALISHLARI. – 2024. – T. 1. – №. 4. – C. 268-272.
25. Baxriddinovna R. U., Musurmonovich F. S. MAKTABDA TABIIY FANLAR, TEXNOLOGIYA, MUHANDISLIK, SAN'AT VA MATEMATIKA FANLARINI UYG 'UNLIKDA O 'QITISHNING AFZALLIKLARI //NAZARIY VA AMALIY FANLARDAGI USTUVOR ISLOHOTLAR VA ZAMONAVIY TA'LIMNING INNOVATSION YO'NALISHLARI. – 2024. – T. 1. – №. 4. – C. 259-263.
26. Baxriddinovna R. U., Musurmonovich F. S. OZIQ ZANJIRI VA OZIQ TO 'RI TUZISH //NAZARIY VA AMALIY FANLARDAGI USTUVOR ISLOHOTLAR VA



ZAMONAVIY TA'LIMNING INNOVATSION YO'NALISHLARI. – 2024. – T. 1. – №. 4. – С. 264-267.

27. Musurmonovich F. S., Baxriddinova R. U. OQSIL TAQCHILLIGINI TA'MINLASHDA SOYA O'QIMLIGINING O'QIMINI //NAZARIY VA AMALIY FANLARDAGI USTUVOR ISLOHOTLAR VA ZAMONAVIY TA'LIMNING INNOVATSION YO'NALISHLARI. – 2024. – T. 1. – №. 4. – С. 254-258.

28. Eshonqulov S. S. et al. THE EFFECTIVENESS OF EXPLAINED THE CONTENT OF THE SUBJECT OF HYBRIDIZATION TO STUDENTS IN SCHOOL LESSONS //Экономика и социум. – 2024. – №. 3-1 (118). – С. 163-168.